

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YAXYOYEVA UMIDA IBROHIM QIZI

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NUTQIY AKT
(A.QAHHOR ASARLARI MISOLIDA)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Yaxyoyeva Umida Ibrohim qizi

О‘zbek xalq maqollarida nutqiy akt (Abdulla Qahhor asarlari misolida)3

Яхёева Умида Иброхим кизи

Речевые акты в узбекских народных пословицах (на примере произведений
Абдуллы Каххара).....23

Yakhyoeva Umida Ibrohim qizi

Speech Acts in Uzbek Folk Proverbs (Based on the Works of Abdulla
Khahhor)45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YAXYOYEVA UMIDA IBROHIM QIZI

**O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NUTQIY AKT
(A.QAHHOR ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil6041 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Muhammadjon Xo'jaxonovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universitet

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «09» iyun soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11. Tel: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (897 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «25» may kuni tarqatildi.

(2026-yil «25» may dagi 17 -raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E. Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'. Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilga antroposentrik nuqtayi nazardan yondashish boshlangach, pragmalingvistik tadqiqotlar unda muhim o‘rin egalladi va bu izlanishlar markazida inson omili birinchi o‘ringa qo‘yildi. Tilshunoslik taraqqiyotining bu bosqichida til birliklarining nutq vaziyati, tilning funksional xususiyati, nutqiy muloqot jarayoni va kontekst, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari, tilga oid ko‘nikma va malakalari kabi qator omillar bilan bog‘liq holda reallashadigan imkoniyatlarini o‘rganishga e‘tibor qaratila boshlandi. O‘z navbatida, nutqiy faoliyat masalalariga oid tadqiqotlar pragmalingvistika, xususan, nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishiga zamin bo‘ldi.

Dunyo tilshunosligida tilning kommunikativ xususiyatlariga qiziqish ortib borar ekan, maqollarni nutqiy akt nazariyasi asosida o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishga aylandi hamda nutqiy akt bo‘yicha izlanish olib borgan olimlar maqollarga faol verbal muloqotning bir qismi sifatida qaray boshladi. Ma’lumki, inson ongida ijtimoiy-madaniy, psixofiziologik, lisoniy omillar hamda konseptual bilimlar asosida shakllanadigan dunyo haqidagi tasavvurlar nutqiy faoliyat jarayonida o‘ziga xos verbal ifodalar orqali reallashadi. Mazkur kognitiv jarayon natijasi sifatida yuzaga keluvchi nutq ko‘rinishlarining pragmatik xususiyatlarini maqollar misolida tadqiq etish pragmalingvistika uchun qimmatli nazariy bilimlar beradi.

Mamlakatimizda antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishidagi izlanishlar til birliklarini nafaqat strukturaviy, balki kommunikativ va pragmatik jihatdan o‘rganishni taqozo etmoqda. Tilshunosligimizda maqollar ko‘p hollarda lingvokulturologik, semantik, uslubiy va genetik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ular nutqiy akt nazariyasi doirasida izchil va tizimli ravishda o‘rganilmagan. Bu esa tilning kommunikativ va pragmatik salohiyatini to‘liq ochib berishda muhim bo‘lgan ushbu yo‘nalishning ilmiy izlanishlar doirasidan chetda qolayotganini ko‘rsatadi. Shu bois maqollarni nutqiy faoliyat mahsuli, ya’ni illokutsion va perlokutsion kuchga ega bo‘lgan pragmatik birlik sifatida tahlil qilish masalasi o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biri”¹, sifatida belgilangan ekan, bu maqollarga oid tadqiqotlarning hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligini yana bir karra isbotlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonuni hamda 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6084-sonli qarori, 2024-yil 12-yanvardagi “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati,

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6084-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-5058351>

o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-19-son, 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-308-son qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida pragmatik lingvistik ildizlari yunon tilshunosligiga, Suqrot dan oldingi davrlarga borib taqaladi. Pragmatikaning atama sifatida shakllanishidan to nazariya darajasiga ko‘tarilishigacha bo‘lgan davrda bir qator olimlarning ilmiy qarashlari ushbu yo‘nalishning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Jumladan, amerikalik olimlardan Ch.S.Pirs², R.Karnap³, Ch.I.Morris⁴, H.P.Gris⁵, J.R.Serl⁶, S.C.Levinson⁷, D. Uilson⁸, K.Bach⁹ va boshqa bir qator olimlar XIX–XX asrlarda nutqiy akt muammolari va nutqni shakllantirish vositalari borasida tadqiqotlar olib borgan. Ushbu oqimning yevropadagi targ‘ibotchilari sifatida J.L.Ostin¹⁰, M.M.Baxtin¹¹, E.Benvenist¹², K.Buhler¹³, W.Humboldt¹⁴, A.Gardiner¹⁵, S.Karsevsky¹⁶, J.Lock¹⁷, I.Kant¹⁸ pragmatikaning amaliy jihatlarini aniqlab; tilning tafakkur, jamiyat va individuallik bilan aloqasini tahlil qilib, pragmatik yondashuvning falsafiy va psixologik asoslarini yaratdi. Lingvistik falsafa maktabi vakillari J.Ostin¹⁹ va J.R.Serl²⁰ pragmatik, xususan, nutqiy aktlar nazariyasini ishlab chiqdi. Shuningdek, dunyo tilshunosligida ro‘y berayotgan yangiliklar, yangi nazariyalarni o‘z ichiga oluvchi “Новое в зарубежной

² Пирс Ч.С. Избранные философские произведения. – М.: Логос, 2000. – 412 с.

³ Карнап Р. Meaning and Necessity: A Study in Semantics and Modal Logic. – Chicago, 1947. – 210 с.

⁴ Моррис С.И. Foundations of the theory of signs. – Chicago: University of Chicago Press, 1938. – 59 с.

⁵ Грис Г.П. Логика и речевое общение// Новое в зарубежной лингвистике, 1985. Вып 16: Лингвистическая прагматика – С. 217–237.

⁶ Searle J.R. Speech Acts: An Essay in Philosophy of Language. – Cambridge: University Press, 1969. – 203 с.

⁷ Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: University Press, 1983. – 420 с.

⁸ Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford: Blackwell Publishing, 1995. – 384 с.

⁹ Bach K. Linguistic: Communication and Speech Acts. – Cambridge: Mass, 1980. – 327 p.

¹⁰ Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: University Press, 1962. – 174 с.

¹¹ Бахтин М. Проблема речевых жанров. – М.: Языки русской культуры, 1978. – 206 с.

¹² Benvenist E. Problems in General Linguistics. – Miami: University of Miami Press, 1971. – 317 с.

¹³ Buhler K. Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. Jena: Gustav Fischer. 1934. – 434 с.

¹⁴ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 400 с.

¹⁵ Gardiner A. The Theory of Speech and Language. – Oxford : University Press, 1932. – 332 с.

¹⁶ Karcevsky S. Aspects of the Phonological Structure. – Chicago: Chicago Press, 1929. – 150 с.

¹⁷ Lock J. An Essay Concerning Human Understanding. – Oxford: Clarendon Press, 1960. – 924 с.

¹⁸ Kant I. Critique of Pure Reason. – Riga: Hartknoch, 1781. – 856 с.

¹⁹ Ostin J. “How to Do Things With Words”/ “Слово как действие”. – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.

²⁰ Serl J.R. Speech Acts: An Essay in Philosophy of Language. – Cambridge: University Press, 1969. – 203 с.

лингвистике”²¹ nomli muntazam nashr qilinadigan to‘planning XVII bobi nutqiy akt nazariyasi masalalariga qaratilgan.

Jahon tilshunosligida N.R.Norrik²², L.Dairo²³, T.A.Lawal, S.O.Ajayi va Y.R.Raji²⁴, A.Jombadi va J.Juliana²⁵, O.M.Alshorafat²⁶, A.Yan²⁷, G.Hor va H.Jamal²⁸ kabi tadqiqotchilar nutq aktining maqollarga nisbatan qo‘llanilishiga doir izlanishlarni amalga oshirgan.

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika sohasida A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, S.Boymirzayeva, Sh.Iskandarova, D.Lutfullayeva, S.Mo‘minov, Sh.Safarov kabilarning xizmatlari sezilarlidir. Jumladan, N.Mahmudov²⁹, M.Hakimov³⁰, S.Mo‘minov³¹, Sh.Safarov³², M.Qurbonova³³ bu borada maxsus izlanishlar olib borgan. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida maqollarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar olib borilayotgani mazkur yo‘nalishning ilmiy dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, D.S.Turdialiyevaning “O‘zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari”³⁴ mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatdan muhim ekanini dalillovchi tadqiqotlardan biridir. Mazkur tadqiqotda maqollarni nutqiy aktlar nuqtayi nazaridan talqin etishga doir ayrim mulohazalar ilgari surilgan bo‘lsa-da, o‘zbek xalq maqollarida nutqiy akt kategoriyasining lingvopragmatik aspektida chuqur, tizimli va kompleks tarzda o‘rganilishi yetarli darajada amalga oshirilmagan. O‘zbek xalq maqollarining illokutiv jihatlarini tahlil qilish orqali ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ochib berish ushbu mavzuni dolzarb ilmiy muammo sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2020–2024) yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

²¹ Новое в зарубежной лингвистике: Вып.17.Теория речевых актов. – М.: Прогресс,1986. – 397 с.

²² Norrick N.R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. – 228 с.

²³ Dairo L.A. Speech Act Analysis of Selected Yoruba Proverbs. Journal of Cultural Studies, 2010. № 8 (3).– P.431–442.

²⁴ Lawal A., Ajayi O., Raji R. A Pragmatic Study of Selected Pairs of Yoruba Proverbs. Journal of Pragmatics, 1996. № 27. – P 635–652.

²⁵ Jombadi A., Juliana J.A. Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning, 2014. №1 (2). – P. 10–19.

²⁶ Alshorafat O. Speech Acts of North Eastern Badia’s Proverbs. International Journal of Linguistics, Literature and Translation, 2016. Vol. 2, Issue 6. – P. 235–241.

²⁷ Yan X.A. Study on Speech Acts in the Use of English Proverbs. M. A. Thesis. Anhui University. China. Journal for Humanities, 18 (4). – P.44– 66.

²⁸ Hor G, Jamal H. A Test of Searle’s Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities 2007, 5 (4), 31–42.

²⁹ Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so‘z, 2017. – 129 b.

³⁰ Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. –T.: Classic, 2020. – 475 b.

³¹ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. dokt. ...diss. – T., 2000.– 236 b.

³² Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 77 b.

³³ Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqining pragmalingvistik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ...diss. – T., 2018. – 240b.

³⁴ Turdialiyeva D.S. O‘zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ...diss. – Qo‘qon, 2024. – 234 b.

Tadqiqot maqsadi o‘zbek xalq maqollarini nutqiy aktning reprezentativ, ekspressiv, komissiv, direktiv, deklarativ kategoriyalari asosida tadqiq qilish, shu asosda har bir kategoriyaning maqollarda voqelanishini nazariy jihatdan asoslash va lingvistik imkoniyatlari, pragmatik ma’nolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim deb topildi:

jahon hamda o‘zbek tilshunosligida pragmatolingvistik, xususan, nutqiy aktlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarni o‘rganish va tahlil qilish;

barqaror birikmalar, xususan, o‘zbek xalq maqollari nutqiy akt jihatdan o‘rganilgan ishlarni tadqiq qilish;

o‘zbek xalq maqollarini nutqiy aktning reprezentativ, ekspressiv, komissiv, deklarativ hamda direktiv akt nuqtayi nazaridan A.Qahhor asarlari misolida kontekstual tahlil qilish;

A. Qahhor asarlarida qo‘llangan o‘zbek xalq maqollarida nutqiy akt turlarining voqelanish darajasini aniqlash hamda ularning statistik tahlilini amalga oshirish;

o‘zbek xalq maqollarini nutqiy akt sifatidagi kommunikativ-pragmatik vazifalarini aniqlash, ularning matn ichida qo‘llanish konteksti, illokutiv kuchi va perlokutiv ta’sirini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida A.Qahhor asarlarida qo‘llanilgan o‘zbek xalq maqollaridagi nutqiy aktlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti A.Qahhor asarlari misolida o‘zbek xalq maqollaridagi nutqiy akt tiplarini tadqiq etish, ularni lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlar asosida kompleks lingvopragmatik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, semantik, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi mazkur ishning quyidagi asosiy xususiyatlari bilan belgilanadi:

dissertatsiya o‘zbek xalq maqollarini nutqiy akt jihatdan o‘rganishga qaratilgan ilk tadqiqot bo‘lib, barqaror birikmalar va paremalarning alohida hodisalar ekanligiga oid mulohazalar bildirilgan va nazariy jihatdan asoslangan;

A.Qahhor asarlarida qo‘llanilgan o‘zbek xalq maqollari reprezentativ, ekspressiv, komissiv, deklarativ, direktiv nutqiy akt kategoriyalari asosida tadqiq etilgan va ichki semantik guruhlarga ajratilgan holda tizimli o‘rganilgan;

tadqiqot davomida A.Qahhor asarlarida mavjud 118 ta o‘zbek xalq maqoli aniqlanib, ushbu maqollarning 32 tasi reprezentativ, 45 tasi ekspressiv, 27 tasi direktiv, 4 tasi komissiv akti yuzaga keltirishi kuzatildi, shuningdek, nutqiy aktning deklarativ turi uchramasligi haqida xulosa qilindi;

jahon tilshunosligida maqollarni nutqiy aktlar asosida tahlil qilgan tadqiqotlarda odatda 20-59 ta maqol obyekti tanlangan. Ushbu ish esa 118 ta maqolning pragmatik jihatdan chuqur tahlili bilan avvalgi izlanishlardan ajralib turadi. Tadqiqot materiallar ko‘lami, mazmuniy chuqurligi va empirik asoslanganligi bilan ham alohida ahamiyatga ega;

mavjud maqollar faollik darajasi bo'yicha statistik tahlil etilganda representativ aktli maqollar 29%, ekspressiv 42%, direktiv 25%, komissiv 4% ni tashkil etib, A.Qahhor asarlarida ekspressiv aktli maqollar birlamchi o'rinda turishi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari tilshunoslik fanining pragmalingvistika, xususan, nutqiy aktlar kabi yangi yo'nalishlarini ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishga, ushbu sohalarda yangi tadqiqotlar rivoji uchun o'ziga xos ilmiy yondashuvlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi;

o'zbek xalq maqollarini nutqiy akt jihatdan tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar paremiologik muammolar yuzasidan muhim nazariy xulosalarga kelish imkonini berishga, tilshunoslikning psixolingvistika, pragmalingvistika, xususan, nutqiy aktlar yo'nalishlari bo'yicha darslik hamda o'quv qo'llanmalar mukammallashuviga xizmat qiladi;

statistik tahlil asosida A.Qahhor asarlarida qo'llangan o'zbek xalq maqollarida nutqiy akt kategoriyalarining faollik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi A.Qahhor asarlarida qo'llanilgan o'zbek xalq maqollarida nutqiy akt tadqiqi atroflicha o'rganilganligi, shu asosda ularning pragmatik ma'nolari ochib berilganligi hamda ushbu maqollar boy daliliy materiallarga tayangan holda chuqur tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy xulosalari A.Qahhor asarlarida foydalanilgan o'zbek xalq maqollarini pragmatik, xususan, nutqiy akt jihatdan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi, adib asarlariga oid maqollar ifodalagan pragmatik ma'nolarni batafsil o'rganish har qaysi maqolning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha tadqiq etishga yo'l ochadi.

O'zbek xalq maqollarida nutqiy akt tadqiqi paremiologiya bo'yicha yaratilajak izohli lug'atlar uchun manba bo'la olishi; "Frazologiya", "Pragmalingvistika", "Psixolingvistika" kabi yo'nalishlarda asos vazifasini o'ta olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

O'zbek xalq maqollarida nutqiy akt (A.Qahhor asarlari misolida) turlari konnotativ ma'no orqali nutqning jozibardorligiga erishish nuqtayi nazaridan O'zbekiston teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat televideniyesi "O'zlikni anglash" hamda Buxoro radiosining "Najot bilimda", "Ijod zavqi" eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalining 2025-yil 24-iyundagi №01-09-141-son ma'lumotnomasi). Bu orqali ushbu ko'rsatuvlarining ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va ular yangi ma'lumotlar bilan takomillashgan.

O'zbek xalq maqollarida nutqiy akt ishtirok etgan birliklarning lingvistik xususiyatlari, milliy tafakkur shakllanish tadrijini paremlar misolida ko'rish, umummilliy ong shakllanishida, ular tadqiqi bo'yicha muayyan xulosalarni berishda II-4721101717-raqamli "Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada ushbu dissertatsiyaning xulosalariga tayanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 25-iyundagi 1120-sonli ma’lumotnomasi). Natijada xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan takliflar ishlab chiqishda o‘zbek xalq maqollarida nutqiy akt ishtirok etgan maqollarning kognitiv tadqiqi asosida ilgari surilgan ilmiy xulosalardan foydalanilgan.

Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilining nutqiy akt bilan bog‘liq masalalari hamda metaforizatsiya darajasiga ko‘tarilishdagi ahamiyati, o‘zbek xalqi kognitatsiyasida ushbu aktlar bilan bog‘liq milliy-mental xususiyatlarning aks etishi jihatlari haqidagi muayyan xulosalarni ochib berishda ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasini amalga oshirishda dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalarga tayanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 25-iyundagi 1119-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mobil ilovadagi nomlarni shakllantirishda dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 7 ta jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 19 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, jami 133 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob “**Pragmalingvistikada nutqiy akt muammosi**” deb nomlanib, ikki fasldan tashkil topgan. Ushbu bobda tilga semiotik yondashuv natijasida yuzaga kelgan pragmalingvistika yo‘nalishi va uning o‘rganish obyektlaridan biri bo‘lgan nutqiy akt masalasi nazariy jihatdan atroflicha o‘rganilgan. Bobning “*Nutqiy akt nazariyasining vujudga kelishi, taraqqiyoti, nazariy talqini*” faslida nutqiy aktning

ilmiy muammo sifatida o'rganilishi, uning atama sifatida paydo bo'lgandan to ilmiy jihatdan asoslanib nazariya bo'lib shakllanishigacha bo'lgan jarayon tizimli yoritilgan. Bu borada ustuvorlik Amerika va yevropa olimlari, xususan, lingvistik falsafa maktabi vakillari J.Ostin³⁵ va J.R.Serl³⁶ga tegishli bo'lsa-da, bu hodisaning ilk kurtaklari antik davrda yunon tilshunosligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka nutqiy akt tushunchasining kirib kelishida amerikalik olim, pragmatika asoschisi Ch.S.Pirs³⁷ning tilga mantiqiy kategoriya sifatida qarashi asos bo'lgan, ammo ushbu nazariyaning ilmiy asoslanishida V.fon Humboldt³⁸ning tilga falsafiy yondashuvi, A.Gardiner³⁹ning til va nutq nazariyasi, M.M.Baxtin⁴⁰ning ifoda nazariyasi haqidagi qarashlari zamin vazifasini o'tagan. Shuningdek, nutqiy akt muammolari va nutqni shakllantirish vositalari S.Balls, S.Kartsevskiy, L.P.Yakubinskiy, K.L.Bulsra, E.Benvenist kabilarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi, nutqiy aktning dastlabki rivojlangan nazariyasi L.Vitgenshteyn⁴¹ tomonidan ishlab chiqilgan hamda lingvistik falsafa maktabi vakillari J.Ostin⁴² va J.R.Serl⁴³ ushbu ta'limot poydevorini yaratgan L.Vitgenshteyn, Ch.S.Pirs va uning semiotika sohasidagi eng mashhur izdoshi C.Morris g'oyalari rivojlantirib, pragmatik funksiyalar nazariyasini ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlari asosida tilni harakat sifatida tushunish, ya'ni aloqa birligi gap yoki matn faqatgina xabar emas; balki savol berish, tushuntirish, ogohlantirish, minnatdorchilik bildirish, hayratlanish, tanqid qilish, masxara qilish, tasdiqlash, buyurish, va'da berish, afsuslanish va h.k. kabi nutqiy harakatlarni bajaradi. J.Ostinning ta'kidlashicha, ingliz tilida bu kabi harakat-holatni bildiruvchi fe'llarning mingdan ortiq turi mavjud.

Shuningdek, mazkur faslda o'zbek tilshunosligida pragmalingvistikaning shakllanishi va rivojlanishida A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, S.Boymirzayeva, Sh.Iskandarova, D.Lutfullayeva, S.Mo'minov, M.Hakimov, D.S Turdialiyevaning xizmatlari sezilarli ekanligi qayd etildi. Sh.Safarovning "Pragmalingvistika"⁴⁴ monografiyasi hamda M.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini"⁴⁵ nomli doktorlik dissertatsiyasida ilgari surilgan qarashlar umumlashtirilishi natijasida nutqiy akt nazariyasi yuzasidan o'zbek tilshunoslarining mulohazalari Oksford maktabi olimlari J.Ostin va J.Serl tomonidan asoslab berilgan ilmiy g'oyalarga tayanilgan holda talqin etilgani kuzatiladi. J.Ostin ilk bora "gap" har doim ham "voqealar haqida axborot, xabar berish" bilan cheklanmay, balki *ogohlantirish, nasihat qilish, maslahat berish, *74-ko'rsatma*

³⁵ Ostin J. "How to Do Things With Words"/ "Слово как действие". – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.

³⁶ Serl J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Univer Press, 1969. – 203 с.

³⁷ Пирс Ч. С. Избранные философские произведения. – М.: Логос, 2000. – 412 с.

³⁸ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 400 с.

³⁹ Gardiner A. The Theory of Speech and Language. – Oxford: University Press, 1932. – 332 с.

⁴⁰ Бахтин М. Проблема речевых жанров. – М.: Языки русской культуры, 1978. – 206 с.

⁴¹ Витгенштейн Л. Философские исследования. – М.: Наука, 1994. – 384 с.

⁴² J. Ostin "How to Do Things With Words" / "Слово как действие". – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.

⁴³ Серль Дж. Классификация иллокутивных актов. // НЗЛ. 1986. Вып XVII. – С.170–187.

⁴⁴ Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. –Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 77 b.

⁴⁵ Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. –Т., 2001. – 283 b.

berish kabi mingdan ortiq harakatlarni ifodalashi mumkinligi g‘oyasini ilgari surdi va nutq aktini uchta qismga bo‘ldi: lokutiv, illokutiv, perlokutiv.

1. Lokutiv – bu aslida gap, bayonotni talaffuz qilish harakati.

2. Illokutiv – bu adresatga ta’sir qilish maqsadida aytilgan bayonot; bu bosqichda so‘zlovchining kommunikativ niyati amalga oshadi.

3. Perlokutiv – bu nutq harakatini bajarish natijasida erishilgan ta’sir, uning bajarilishi adresatga bog‘liq⁴⁶.

Shuningdek, ushbu faslda nutqiy aktning o‘rganish obyekti, qamrov doirasi, tuzilishi va tasnifi masalasi borasidagi qarashlar atroflicha tahlil qilingan. J.Ostin muloqot jarayonida hosil bo‘ladigan nutqiy harakatlarni alohida lisoniy birlik sifatida talqin qilish va ularni mazmunan tasniflash g‘oyasini ilk bor targ‘ib qildi, nutqiy aktlarni kommunikativ niyat darajasiga ko‘ra besh turga ajratdi. Ularni *verdikativ, ekzersitiv, komissiv, bexabitiv, ekspozitiv* atamaları bilan nomladi⁴⁷. J.Serl tasnif masalasida illokutiv maqsad va va undan kelib chiqadigan natijani mezon sifatida oldi va ularni *assertiv, direktiv, kommissiv, deklarativ, ekspressiv* kabi 5 guruhga ajratdi, u taklif qilgan guruhlar O.Ostin tasnifidan mazmun jihatidan farq qiladi. Mazkur faslda J.Ostin va J.Serl qarashlari bilan bir qatorda boshqa tadqiqotchilar tomonidan turli tamoyillarga asoslanib ishlab chiqilgan nutqiy aktlarning guruhlanishi ham yoritilgan bo‘lib, masala yuzasidan yagona ilmiy to‘xtamning shakllanmaganligi tadqiqotlar tahlili asosida aniqlandi. J.Ostin tomonidan ilgari surilgan guruhlash nazariy mezonlarning yetarli darajada asoslanmaganligi sababli ilmiy jamoatchilik tomonidan tanqid ostiga olingan hamda mazkur tadqiqotda J.Serl nazariy qarashlariga tayangan M.Hakimov taklif etgan tasnif ilmiy asos sifatida olindi.

Bobning 2-fasli “*Barqaror birliklarda nutqiy akt tadqiqi*” deb nomlanib, ushbu faslda barqaror birliklar borasidagi jahon va o‘zbek tilshunosligida mavjud mulohazalar keng qamrovda tahlil etildi hamda ikkilanishlarga olib keluvchi turg‘un birliklar va paremlar masalasiga oydinlik kiritildi. Kuzatishlar davomida rus tilshunoslari V.V.Vinogradov va A.V.Kunin⁴⁸, arman tilshunosi A.G.Nazaryan⁴⁹, ingliz tadqiqotchisi N.R.Norrik⁵⁰, qozoq olimi S.K.Kenesboyev⁵¹ kabilar maqol, matalni iboralardan ajratmagan holda frazeologiya doirasida o‘rganishgan. Aksincha, N.N.Amosova⁵², A.M.Babkin⁵³, S.N.Tursunov⁵⁴, N.Uluqovlar⁵⁵ maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlarga kiritishni inkor etadilar. Bizningcha, xalqning donishmandligi va aql-zakovatining ifodasi sifatida yuzaga kelgan,

⁴⁶ Ostin J. “How to Do Things With Words”/ “Слово как действие”. – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.

⁴⁷ Shu asar.

⁴⁸ Кунин А.О.Фразеологических сращениях в современном английском языке // Иностранные языки в школе, 1953. №3. – С. 28–31.

⁴⁹ Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. М.: Высшая школа, 1976. – 318 с.

⁵⁰ Norric N.R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. – 228 с.

⁵¹ Кенесбойев С.К.Фразеологический словарь казахского языка. –Алма-ата: Ғылым,1977. –711с.

⁵²Амосова Н.И. Основы английской фразеология. – Ленинград: Издательство ленинградского университета, 1963. – 227 с.

⁵³ Бабкин А.М. Русская фразеология, её развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 264 с.

⁵⁴ Турсунов С.Н. ва бошқ. Халқ хикматларининг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти. – Т.: Янги нашр, 2014. –176 б.

⁵⁵ Улуқов Н.Тилшунослик назарияси. – Т.: Баркамол файз медиа, 2016. –192 б.

millatning ruhi, uning madaniyatini o'zida akslantiradigan maqol, matal va aforizmlar frazeologizmlardan tubdan o'zgachadir. Ushbu birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no nuqtayi nazaridan turlichadir. Frazeologizm va maqol idiomaga nisbatan gipo-giperonimlik munosabatida turadi. Fikrimizni maqolshunos B.Jo'rayevaning qarashlari⁵⁶ dalillaydi. Ko'rinadiki, ko'chma ma'noga egalik belgisi bilan ibora ham, maqol ham idioma tarkibiga kiradi. Shuningdek, mazkur faslda maqol va matalning o'xshashligi hamda tafovutlari borasida mushohada yuritildi. Maqolning mataldan asosiy farqi – maqolning idiomalashgan ko'chma ma'noga ega ekanligi va matalning bu xususiyatga ega bo'lmay, faqatgina to'g'ri ma'noda qo'llanishida ko'rinishi dalillandi.

Shuningdek, mazkur faslda jahon va o'zbek tilshunosligida barqaror birliklar, xususan, maqollarda nutqiy akt masalasi atroflicha o'rganildi. Tilga pragmatik yondashuvning kirib kelishi bilan maqollarning matndagi vazifasiga e'tibor qaratildi va maqollarni alohida nutqiy harakatlar bilan birlashtirish mumkinligi yaqqol ko'rinib qoldi hamda nutq akti tadqiqotchilari maqollarga faol verbal muloqotning bir qismi sifatida qaray boshladi. V.P.Anikinining fikricha, maqollarning mazmun jihati turli soha mutaxassisleri kabi tilshunoslarni ham qiziqtiradi va ular maqollarda “inson nutqining o'ziga xos xarakterlar va qonuniyatlarini o'rganish uchun qimmatli materialni” ko'radi. Odamlar bir-biri bilan muloqot qilganda turli xil maqsadlarda maqollardan foydalanadi. Maqollar *maslahat, tanqid, tahdid, maqtov, ogohlantirish, kinoya* va boshqa ko'plab kommunikativ vazifalarni bajaradi. Nutq harakatining maqollarga nisbatan qo'llanilishidagi dastlabki namuna N.R. Norrickda⁵⁷ uchraydi: “Maqollar nafaqat to'g'ri ma'noda aytilgan xulosalarni anglatadi, balki ichki yashirin mazmunga ega bo'ladi va buni faqat matndagina anglash mumkin”. M.Harnish paremalarga oid maqolasida nutqiy aktlarning tizimli sistemasini ishlab chiqadi. Maqollarda nutqiy aktlarni o'rganish L.Daironing so'nggi tadqiqotida⁵⁸ kengroq keltirilgan. Bundan tashqari A.Lawal, O.Ajayi, R.Raji⁵⁹ hamda A.Jombadi va J.Juliana⁶⁰ yoruba xalq maqollarida, O.M.Alshorafat⁶¹ badaviy maqollarida, A.Ali va S.Makhlef⁶² ingliz va arab maqollarini solishtirish asosida, A.Yan⁶³ ingliz maqollarida, G.Hor va

⁵⁶Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ...дис. – Самарқанд, 2020. – 237 б.

⁵⁷ Norrick N.R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. – 228 с.

⁵⁸ Dairo, L. A speech act analysis of selected yoruba proverbs. Journal of Cultural Studies.2010. 8, 3: 431– 442.

⁵⁹ Lawal A., Raji. A Pragmatic Study of Selected Pairs of Yoruba Proverbs. Journal of Pragmatics, 1996. № 27. – P 635–652.

⁶⁰ Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning,1(2), 10-19.

⁶¹ Alshorafat O. Speech Acts of North Eastern Badia's Proverbs. International Journal of Linguistics, Literature and Translation, 2016. Vol. 2, Issue 6. – P. 235–241.

⁶² Ali A., Makhlef S.A. Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities, 2011. 18 (4). – P. 44–66.

⁶³ Yan X.A Study on Speech Acts in the Use of English Proverbs. M. A. Thesis. Anhui University. China. Journal for Humanities, 18 (4). – P.44 – 66.

H.Jamal⁶⁴ Livan diniy maqollarida, A.Jabbar⁶⁵ Amerika maqollarida, A.V.Soyinka Nigeriya maqollarida, A.Lutfilar⁶⁶ ob-havoga oid maqollarda nutqiy aktlarni o'rganish borasida tadqiqot olib borishgan bo'lib, mazkur ishlar dissertatsiyada batafsil yoritilgan. Yuqoridagi ishlar bilan tanishish jarayonida shuni qayd etish mumkinki, mazkur ishlarda matallar, ba'zan hikmatli so'zlar, maqollar tarkibida nutqiy akt jihatdan aralash tarzda keltirilgan. O'zbek tilshunosligida D.S. Turdialiyeva⁶⁷ tadqiqotida maqollarning pragmatik imkoniyatlari sifatida ularning ma'naviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy me'yorlarni ifodalashi, emotsional-ekspressiv mazmuni yetkazishi hamda kommunikativ munosabatlarni tartibga solishi orqali namoyon bo'lishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqollardagi asosiy nutqiy akt turlari sifatida buyruq va tavsiya, xulosa va nasihat, ogohlantirish, ijobiy baholash (maqto'v), qarshilik va norozilik, qiyos hamda tasdiq-ma'qullash kabi ma'noli birliklar ajratib ko'rsatilgan.

Barqaror birikmalarning keyingi turi frazeologizmlarda nutq akti borasida katta ilmiy ishlar deyarli mavjud bo'lmasa-da, maqola⁶⁸ shaklidagi kichik izlanishlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarning tahliliy jihatlari dissertatsiyada batafsil sharhlangan. Ko'rinadiki, barqaror birliklar, xususan, maqollar xalq tarixini aks ettiruvchi va nutqning ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita bo'lib, ularni nutqiy akt jihatidan o'rganish o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O'zbek xalq maqollarida inson ongi va hissiy kechinmalari bilan bog'liq nutqiy aktlar”** deb nomlanib, ikki fasldan iborat.

Mazkur bobda inson ongi bilan bog'liq borliqni idrok etishga oid representativ va deklarativ aktlar hamda inson hissiy kechinmalarini ifodalovchi ekspressiv aktlarga doir nazariy qarashlar tadqiq etilgan. Birinchi fasl *“Representativ va deklarativ akt”* deb nomlandi. Nemis tilshunosi K.Byuller⁶⁹ representativ tipni olamni tushunish deb izohlaydi. Nutqiy muloqot jarayonida representativ aktlarning mazmuni hamisha bir xil bo'lib qolmay, ularning ma'nosi adresantning maqsadi hamda adresantning tafakkur tarziga bog'liq holda turlicha talqin qilinishi A.Qahhor va boshqa adiblarning ijodi misolida qiyosiy planda o'rganildi.

Masalan, *“Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”* maqoli representativ akt jihatidan tahlil qilinsa, ushbu maqol:

A.Qahhorning “O'g'ri” hikoyasida ellikboshining “mehnati”ga yarasha “haq to'lanishi” lozimligi haqida *zaruratni*; S.Ahmadning “Oftobga chiqqan mushuk” hikoyasida tamagir xo'jayinning xodimlaridan pora olish *istagini*; A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida “Sizdan ugina bizdan bugina” *shart ma'nosini*;

⁶⁴ Hor G, Jamal H. A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities 2007, 5 (4), 31–42.

⁶⁵ Abduljabbar.L. (n.d.). A Linguistic Analysis of the Speech Act of Advice in American English Proverbs. Journal of College of Education for Women, 2008. №19 (1). – P.116–128.

⁶⁶ Lutfi A.Weather Proverbs and Speech Acts. Journal of Collage of Education, 2018. 2 (19). – P. 296–304.

⁶⁷ Turdialiyeva D.S. O'zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ...diss. – Qo'qon, 2024. – 234 b.

⁶⁸ Jumaqulova Sh.Q. Pragmatikada nutqiy akt tasviri. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 2022. №1. – B.74–76.

⁶⁹ Byuller K. Sprachtheorie. – Germaniya, Gustav Fischer,1934. – 434 c.

O.Muxtorning “Egilgan bosh” romanida “Har qanday yordam, yaxshilik ortida ikkinchi tarafning manfaati turadi” degan *gumon ma’nolarini* ifodalaydi.

Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, A.Qahhor asarlarida qo’llangan 118 ta maqolning 32 tasi reprezentativ aktga oid bo’lib, ushbu maqollar ro’yxati dissertatsiyada batafsil keltirilgan. Shuningdek, faslda deklarativ aktning mazmun-mohiyati batafsil ochib berilgan. Bir so’z bilan aytganda, davlat, huquq, sud, armiya, maktab, diniy tashkilotlar kabi tuzilmalarning rasmiy institutsional nutqi bu turdagi aktlarni yuzaga keltiradi. Izlanishlar davomida ma’lum sotsial mavqega ega shaxsgina amalga oshiradigan rasmiy nutq ko’rinishlarini ro’yobga chiqaruvchi deklarativ aktlar maqollarda uchramasligi, chunki maqollar xalq donishmandligini o’zida mujassamlashtirgan va avloddan avlodga og’zaki tarzda o’tib kelayotgan barcha uchun umumiy hikmatlar ekanligi haqidagi xulosaga kelindi.

Bobning ikkinchi fasli “*Ekspressiv kategoriyali nutqiy aktlar*” tahliliga bag’ishlanadi. Maqollarning muloqot samarasi uchun tutgan o’rni ularning boshqa til vositalariga nisbatan uslubiy ta’sirchanlikni yuqori darajada ta’minlay olganidir. Nutqiy akt nazariyasida ekspressiv aktga oid terminologik yondashuvlar xilma-xil. J.Ostin⁷⁰ “ekspozitivlar”, K.Bax va R.Harnish⁷¹ “aknolejment”, D.Vunderlix⁷² “satisfaktiv”, A.Vejbitskaya⁷³ “emotiv”, N.N.Formanovskaya⁷⁴ “etiketlar”, V.G.Gak⁷⁵ “emotsional-baho nutqiy akti”, I.V.Trufanova⁷⁶ “ekspressiv-emotsional nutqiy akt” atamalaridan foydalangan. G.G. Pochepsov⁷⁷ ularni alohida guruh sifatida ajratish shart emasligini ta’kidlaydi. L.A. Piotrovskaya⁷⁸ esa “emotsional” va “emotiv” hodisalarini farqlash zarurligini ilgari suradi. Mazkur turkum J.Serl va uning izdoshlari (N.A.Trofimova, J.Lich, T.Ballmer, V.Brennenshtul, L.P.Chaxoyan, N.A.Komina, L.Pisarek) tomonidan “ekspressivlar” termini bilan nomlanadi. J.Serl ekspressivlar tarkibiga kiruvchi nutqiy aktlarni ikki: so’zlovchining tinglovchiga ijobiy va salbiy munosabatini ifodalovchi nutqiy aktlarga ajratadi. Ushbu faslda ekspressiv aktlar borasidagi tasniflar o’rganilib, ular umumlashtirilgan holda to’rtta kichik guruhga ajratildi hamda A.Qahhor asarlarida qo’llanilgan ekspressiv nutqiy aktlardan eng faol uchraydigan turlari quyidagi jadvalda keltirildi.

⁷⁰ Ostin J. “How to Do Things With Words”/ “Слово как действие”. – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.

⁷¹ Bach K. Linguistic Communication and Speech Acts. – Cambridge: Mass, 1980. – 327 p.

⁷² Wunderlich D. Studien zur Sprechakttheorie. – Frankfurt: Suhrkamp, 1976. – 417 с.

⁷³ Вежбицкая А. Речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. 1985. Вып. 16.–С.251–275

⁷⁴ Вежбицкая А. Речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. 1985. Вып. 16.–С.251–275

⁷⁵ Гак В.Г. К проблеме сопоставительно-типологического анализа речевого акта и текста // Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. – М.: Наука, 1987. – 240 с.

⁷⁶ Труфанова И.В. Прагматика несобственно-прямой речи. – М.: Наука, 2000. – 568 с.

⁷⁷ Почепцов Г.Г. Слушатель и его роль в актах речевого общения. В кн.: Языковое обвдение: Единицам и регулятив. – Калинин: Изд-во КГУ, 1987. – 132 с.

⁷⁸ Пиотровская Л. А. Взаимодействие эмоциональной и рациональной оценки в процессе порождения речи // Русский язык: исторические судьбы и современность: III Международный конгресс исследователей русского языка: Труды и материалы / сост. М. А. Ремнева, А. А. Поликарпов. – М.: МАКС Пресс, 2007. – 816 с.

“2.1-jadval”. A.Qahhor asarlarida uchrovchi ekspressiv aktlar

EKSPRESSIV NUTQIY AKTLAR			
IJOBIY HIS-TUYG'ULARNI IFODALOVCHI AKTLAR	SALBIY HIS-TUYG'ULARNI IFODALOVCHI AKTLAR	HAM IJOBIY, HAM SALBIY HIS-TUYG'ULARNI IFODALOVCHI AKTLAR	BETARAF AKTLAR
Qanoat akti	Tanqid akti	Hayrat akti	Ta'kid akti
Ishonch akti	Ta'na-dashnom akti		Dadillik akti
Umid akti	Haqorat akti		Tasalli akti
Minnatdorchilik akti	Masxaralash akti		Pushaymonlik akti
Mamnuniyat akti	Istehzo akti		Alam qilish akti
Kechirim akti	Kinoya akti		O'kinch akti
Xayrixohlik akti	Hasad qilish akti		Ilojsizlik akti
Hurmat akti	Nafsoniyatga tegish akti		Umidsizlik akti

Statistik tahlil asosida adib asarlarida qo‘llangan o‘zbek xalq maqollaridagi ekspressiv nutqiy akt kategoriyalarining faollik darajasi aniqlandi: ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi maqollar – 12 ta; salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi maqollar – 26 ta; ham ijobiy, ham salbiy tuyg‘ularni ifodalovchi maqollar – 4 ta; betaraf mazmundagi maqollar 6 ta ekanligi ma’lum bo‘ldi.

1. Ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi nutqiy aktlar. Dissertatsiyada maqollarda uchrovchi ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi nutqiy aktlarning 10 ga yaqin (*mamnuniyat, quvonch, ishonch, hurmat, shukur, minnatdorchilik, umid, qanoat, pushaymonlik, kechirim, xayrixohlik* va h.k.) aniqlandi. Shulardan 8 turi: hurmat akti “*Mehmon – atoyi xudo*”⁷⁹; xayrixohlik akti: “*Har ko‘katning o‘z suygan tuprog‘i bo‘ladi*”⁸⁰; umid akti: “*Yig‘lab-yig‘lab marza olsang, kulib-kulib sug‘orasan*”⁸¹; ishonch akti: “*Ko‘pdan quyon qutulmaydi*”⁸²; minnatdorchilik akti: “*Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber*”⁸³; qanoat akti: “*Non ham non, non ushoq ham non*”⁸⁴; kechirim akti: “*Egilgan boshni qilich kesmaydi*”⁸⁵; mamnuniyat akti: “*Har kimmiki o‘ziga, Oy ko‘rinar ko‘ziga*”⁸⁶ kabi ijobiy ekspressiv

⁷⁹ Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик. 1-жилд. (Майиз емаган хотин) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 330 б.

⁸⁰ Қаҳҳор А. 5 жилдлик. 1-жилд. Қўшчинор чироқлари. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 41.

⁸¹ Shu manba. – Б. 34.

⁸² Shu manba. – Б. 104.

⁸³ Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик. 4-жилд. (“Сўнги нусхалар” (“Тобутдан товуш”))– Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б.42.

⁸⁴ Қаҳҳор А. 5 жилдлик. 1-жилд. Қўшчинор чироқлари. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.7.

⁸⁵ Shu manba. – Б.166.

⁸⁶ Shu manba. – Б.18.

aktli maqollar A.Qahhor ijodida uchrashi kuzatildi. Ushbu maqollarning pragmalingsvistik yondashuv asosidagi batafsil tahlili dissertatsiyada berilgan.

2. Salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar. Bunday aktlar orqali so'zlovchi suhbatdoshning xatti-harakatini qoralaydi yoki muayyan ijtimoiy holatni tanqid qiladi. J.Ostin salbiy emotsional aktlarni behaviorial akt kategoriyasiga kiritadi. E.Goffman "Essays on Face-to-Face Behavior"⁸⁷ nazariyasida salbiy aktlarni "ijtimoiy obro'ga putur yetkazuvchi" nutqiy xatti-harakat sifatida baholaydi. P.Brown va C.Levinson "Politeness Theory"⁸⁸ nazariyasida salbiy ekspressiv aktlarni E.Goffman kabi "Face Threatening Acts", ya'ni "sha'nga tahdid qiluvchi" aktlar sifatida izohlagan. Kuzatuvlar natijasida maqollarda salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlarning 30 ga yaqin turi (jumladan: *umidsizlantirmoq, ranjitmoq, qo'rqitmoq, tahqirlamoq, sarosimaga solmoq, vahima uyg'otmoq, uyatga qoldirmoq, nafsoniyatga tegmoq, ishonchsizlik bildirmoq, jahlini chiqarmoq, nafrat uyg'otmoq, alamini keltirmoq, xavotirga solmoq, masxaralamoq, ta'na qilmoq, kinoya qilmoq, kesatmoq, gina qilmoq, zaxarxanda qilmoq, haqoratlamoq, O tanbeh bermoq, qarg'amoq va h.k.*) qayd etildi. Shulardan 12 turi: ta'na-dashnom akti: "*Qazisan, qartasan, axir, aslingga tortasan*"⁸⁹; haqorat akti: "*Itga bersang oshingni, Itlar g'ajir boshingni!*"⁹⁰; nafsoniyatga tegish akti: "*G'alchani izzat qilsang chorig'i bilan to'rga chiqadi*"⁹¹; masxaralash akti: "*Qisir sigir ko'p ma'raydi*"⁹²; istehzo akti: "*Tayyor oshga bakovul*"⁹³; kinoya akti: "*O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir...*"⁹⁴; hasad akti: "*Yugurganniki emas, buyurganniki*"⁹⁵; mazax akti: "*So'qir ko'zga surma*"⁹⁶; zarda akti: "*Har kimning go'ri boshqa...*"⁹⁷; gumon akti: "*Qo'rqan oldin musht ko'taradi*"⁹⁸; berahmlik akti: "*Otning o'limi, itning bayrami*"⁹⁹; tanqid akti: "*Suv boshidan loy*"¹⁰⁰ kabi salbiy ekspressiv aktli maqollar A.Qahhor asarlarida uchraydi va ularning pragmalingsvistik yondashuv asosidagi batafsil tahlili dissertatsiyada berilgan.

3. Ham ijobiy, ham salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar. Tadqiqotda "hayrat" akti baholashning noaniqligi, hissiyotlar tizimida uni ijobiy yoki salbiy bo'lgan darajalarga to'g'ridan to'g'ri ajratishning imkonsizligi nuqtayi nazaridan ushbu guruhga kiritildi. Inson ikki xil vaziyatda hayrat reaksiyasini ifodalaydi:

⁸⁷Goffman, E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. –New York: Anchor Books,1976. –288 c.

⁸⁸ Brown P. va Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press,1987. – 343 c.

⁸⁹Қаҳҳор А. 5 жилдлик. 1-жилд. Қўшчинор чироқлари. – Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.1.

⁹⁰ Shu manba. – Б.4.

⁹¹ Shu manba. – Б.14.

⁹² Shu manba. – Б.16.

⁹³ Shu manba. – Б.21.

⁹⁴ Shu manba. – Б.122.

⁹⁵ Shu manba. – Б.21.

⁹⁶ Shu manba. – Б.169.

⁹⁷ Shu manba. – Б.56.

⁹⁸ Shu manba. – Б.193.

⁹⁹ Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик. 1-жилд. (Ўғри) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 330 б.

¹⁰⁰ Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик. 3-жилд: Қиссалар/ Синчалак. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б.62.

1. Kutilmagan yoqimli holatlarda. 2. Kutilmagan yoqimsiz vaziyatlarda. Hayrat hissiyotining aksiologik jihatdan neytral hisoblanishi, uning aynan qanday mazmun kasb etayotgani kontekstdan anglashilishi va bunga oid misollar tadqiqotda sharhlangan.

